



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2431-5
2025 - yil 21 - Noyabr

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

**Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida
o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni
taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish
haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012-yil 28-dekabrdagi 508-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2431, 2013-yil 26-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 9-son, 120-modda) bilan tasdiqlangan Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2025-yil 11-noyabr
443-son



SHARIPOV KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil 11-noyabrdagi 443-son buyrug‘iga
ILOVA

**Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlarida
o‘qitishning to‘lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag‘larni
taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan
o‘zgartirishlar**

1. 18-banddagi va 27-bandning ikkinchi xatboshisidagi “oshirilgan to‘lov-kontrakt” degan so‘zlar “qo‘shimcha va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 20-banddagi “50” raqami “25” raqami bilan almashtirilsin.

3. 22-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“22. Kontrakt asosida o‘qitish uchun to‘lov o‘quv yilining quyidagi muddatlarida:

belgilangan to‘lov miqdorining kamida 25 foizi – talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun 15-sentabrgacha hamda ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalar uchun 1-oktabrgacha yoki oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan uzaytiriladigan muddatgacha;

belgilangan to‘lov miqdorining kamida 50 foizi 1-yanvargacha, 75 foizi 1-martgacha va 100 foizi 1-maygacha yoki oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan uzaytiriladigan muddatgacha amalga oshiriladi.

Bunda, Davlat komissiyasi tomonidan mazkur bandeda nazarda tutilgan to‘lovlarni amalga oshirish muddatlari uzaytirilishi mumkin.

Qo‘shimcha va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qish istagini bildirgan abituriyent Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda to‘lov-kontrakt shartlarining birinchi o‘quv yili uchun kamida 50 foizini

bajargandan so'ng oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.”.

4. 24-bandning uchinchi xatboshisidagi “Oshirilgan to'lov-kontrakt” degan so'zlar “Qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5. 28-bandning yettinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunda, qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilinganlar birinchi kursda talabalar safidan chetlashtirilganda qaytariladigan to'lov miqdori o'quv yilining oxiriga qadar qolgan oylar sonini tegishli o'quv yiliga tasdiqlangan o'qitishning qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdorining o'n ikkidan bir qismiga ko'paytirish orqali aniqlanadi va kontraktning tegishli tarafi yozma murojaatiga ko'ra qaytarib beriladi.”.

6. 34-bandda:

birinchi xatboshidagi “oshirilgan to'lov-kontrakt” degan so'zlar “qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'ninchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarni malakasini oshirish va stajirovka o'tashlariga;”;

o'n uchinchi xatboshidagi “eng kam ish haqining” degan so'zlar “mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

7. 50-bandning o'n birinchi xatboshisidagi “eng kam ish haqining” degan so'zlar “mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining” degan so'zlar bilan almashtirilsin.